



KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O`QUVCHILAR XOTIRASINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK TAMOYILLARI VA USULLARI

Najmiddinov G'ayratjon Paxriddin o'g'li

Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani 15-maktab psixologi

Annotatsiya: Bugungi kunda yoshlarni yuksak bilim va salohiyatli qilib tarbiyalash dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: xotira, esda saqlash, individ, operativ xotira.

Hozirgi davr talabi ma'naviy jihatdan yetuk, har tomonlama bilimdon, mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirish bo'lib, bu muammo shaxsning bilish jarayonida ham amalga oshirilishi mumkin. Shaxsning ma'naviy yetukligi, bilimdon, zehnliligi ta'lim jarayonida namoyon bo'ladi. Ta'limning sifatli tashkil qilinishi o'quvchilarning bilish jarayonlaridan biri hisoblangan xotira jarayoniga bog'liq bo'ladi. Shunday ekan, o'quvchilarning esda saqlash, esda olib qolish, qayta esga tushirish jarayonlarini shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xotira mavzusi yosh davrlari psixologiyasi, umumiy psixologiya, pedagogik psixologiya, tibbiyot psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya, eksperimental psixologiya yuridik psixologiya kabi psixologiyaning turli tarmoqlarida o'rganilgan hamda ko'pgina tadqiqotlar o'tkazilgan. Yosh davrlari psixologiyasida xotira masalasi inson shakllanib, turli yosh davrlariga qadam qo'yishi bilan xotira jarayoni ham shakllanib rivojlanib borishi xususida ma'lumotlar olishimiz mumkin. Umumiy psixologiya darsliklari orqali xotira haqida tushuncha, xotira turlari xotira jarayoni haqidagi nazariyalar haqida ko'pgina ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Pedagogik psixologiya fanida xotira jarayonining pedagogik jarayondagi ahamiyati, o'qituvchi hamda o'quvchi, talabalar xotira jarayoni va buning ta'lim jarayoniga ta'siri hususiyatlari o'rganilgan. Tibbiyot psixologiyasi fanida xotiraning nerv fiziologik asoslari,



xotira buzilishlari va korreksiya qilish usullari haqida ma'lumotlar mavjud. Eksperimental psixologiyada xotira bo'yicha o'tkazilishi mumkin bo'lgan turli yosh davrlari bilan bog'liq holda metodikalar majmuyi mavjud. Man bir necha yildirki, psixologiya fanida insondagi xotira masalasiga to'xtalganimizda turfa qarashlar hamda psixolog olimlarimiz tomonidan bildirilgan fikr mulohazalarga guvoh bo'lamiz. Ularning har qaysisi o'z nuqta'i nazarlaridan kelib chiqqan holda inson xotirasini mustahkamlash, undagi faollikni orttirish hajmini kengaytirish va shu kabi boshqa masalalar haqida taklif hamda tavsiyalarni keltirib o'tmoqdalar. Demak, bundan ko'rinadiki, ushbu mavzuda qancha gapirilsa eskirmaydi. Chunki insoniyat tirik ekan, albatta uning eslab qolish qobiliyati bir-biridan qiziq savollarni keltirib chiqaraveradi. Shu o'rinda bugungi kun kishilaridagi xotiraning qay darajada mustahkam ekanligi va buning sabablari nimalarga bog'liq ekanligi haqida to'xtalib o'tsak. Biz aksariyat hollarda tevarak atrofdagi sezgilarimiz yordami bilan idrok qilgan narsalarni o'zimizga kerak bo'lgan vaziyatlarda esga ololmay, ba'zan xafa yoki ba'zan jig'ibiyron bo'lamiz va o'zimiz istamagan holda afsus esimdan chiqib qolibdi degan jumllarni aytamiz. Biroq unutmashimiz lozimki, kundalik hayotimizdagi tajribalar shuni ko'rsatadiki, eslab qolgan narsalarning hammasi ham esimizga to'laligicha tushavermaydi. Ularning bir qismi unutiladi va aynan mana shu unutib qoldirish ham xotiraga oid xodisadir. Inson xotirasining qonuniyatlarini o'rganish psixologiya fanining markaziy masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ma'lumki insonning har qanday kechinma, xatti-harakatlari uzoq muddat ongda saqlanib, ma'lum bir sharoitda qayta namoyon bo'luvchi izlar qoldiradi. Xotira bu biz ilgari idrok qilgan, boshdan kechirga va bajargan ishlarimizni yodda saqlash, keyinchalik ularni eslash yoki xotirlash jarayonidir. Har kuni yanggi narsalarni bilamiz, kun sayin bilimlarimiz boyib boradi. Xotira faoliyatida shaxsning g'oyaviy yo'nalishi kata o'rin egallaydi. Ko'pgina adabiyotlarda xotira tushunchasi quyidagicha ta'riflanadi: “Individning o'z tajribasida esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik uni yana esga tushirishi xotira deb ataladi” Psixologiya fanida xotira muammosiga turlicha yondashuvlar mavjud bo'lib, ular mohiyati jihatidan bir kategoriyaning har xil mezonlar bilan o'lchashda o'z ifodasini topadi. Hozirgi zamon xotirani tadqiq qilish bilan bog'liq tadqiqotlarda markaziy o'rin xotira jarayonining



asoslariga ajratilgan. Xotira jarayonining asoslari uch yo'nalishda o'rganilgan. Bular: psixologik, neyro-fiziologik, bioximik. Xotiraning psixologik nazariyalari inson faolligi bilan bog'liq bo'lgan xotira jarayonlarini shakllantirishni tadqiq etadi. Rus psixologiyasida xotira jarayoni bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarda eydetik obrazlarning namoyon bo'lishi shaklida o'rganilgan. Jumladan A.R.Luriya tomonidan eydedik xotiraning individual tipologik xususiyatlari chuqur ta'riflab berilgan. Eydetik obrazlar harakatlanish xususiyatiga ega bo'lib, subyektlarning oldiga qo'yilgan vazifa va uning tasavvurlari ta'siri ostida o'zgartirish mumkin. Assotsiativ psixologiya maktabining vakili, taniqli psixolog G.Ebbingauz jahon psixologiyasida birinchi bo'lib oliy ruhiy jarayon bo'lgan xotirani tajriba metodi negizida tekshirga va keng ko'lamda turmushga tatbiq etgan. Xotira jarayonini tajriba orqali tekshirishning asosiy yo'nalishini ishlab chiqdi. Bolalarda xotiraning yuksak(yuqori) shakllarini birinchi marta tadrijiy ravishda tadqiq qilish taniqli psixolog L.S.Vigotskiyga nasib etgan. U maxsus tekshirishlarning predmeti qilib, xotiraning yuksak shakllarining rivojlanishi muammosini tanlagan va o'z shogirdlari A.N.Leontev va A.V.Zankov bilan birgalikda xotiraning yuksak shakllarini ruhiy faoliyatning murakkabshakli ekanligini, kelib chiqish jihatidan ijtimoiyligini ko'rsatadi. Shuning bilan birga u murakkab, mohiyatiga ko'ra esda olib qolishning asosiy bosqichlari rivojlanishini isbotlab bergan. A.N.Leontev, S.L.Rubinshteyn, P.A.Ribnikovlar bolalar xotira faoliyatini o'rganganlar. Shuningdek ular o'qish faoliyatiga asoslangan holda maktab o'quvchilarida tekshirish ishlarini olib borganlar. Ular tomonidan faoliyat nazariyasi ilgari surilib, turl tasavvurlar orasidagi bog'liqlik esda olib qolingan materialning qandayligiga emas, balki odamning u bilan nima qilishiga bog'liqdir. A.N.Leontev tadqiqot ishlarida kata yoshdagilarning ma'nosiz bo'g'inlardan tuzilgan materialni yaxshi, puxta esad saqlab qolishi ta'kidlagan. Kata yoshdagilar ma'nosiz bo'g'inlarni qandaydir mazmun bilan tez va oson bog'lay oladilar. Shuning uchun ularda bolalarga nisbatan kuchliroq ma'no kasb etadi. Shuningdek ma'no anglatmaydigan materialni o'zlashtirish jarayoni tez ko'chadi, mahsuldorrog bo'ladi. Ma'nosiz materialni egallash uchun iroda kuchi, irodaviy sifatlar muhim ahamiyatga egadir. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar oldida bilish jarayonlaridan biri bo'lmish xotiraning kuchli bo'lishi



va ko'lamining kengligi muhim va dolzarb masalalardan biridir. Xotira jarayoni ham nazariy ham amaliy jihatdan o'rganilishda davom etayotgan muhim ijtimoiy psixologik muammo sifatida tadqiq etiladi. Bola xotirasining rivojlanishi uning yosh davrlari bilan bog'liq holda ijtimoiy muhit, ota-ona nazorati va e'tibori natijasida, atrofidagi do'stlari hamda o'qituvchilari ta'sirida olingan ma'lumotlar esda saqlash jarayonida mukammallashib boradi. Hozirgi kunda olimlar bolalarda uzoq muddatli xotira qaysi yoshdan boshlab ishlay boshlashini aniq aytib berishga qiynaladilar. Xotirada ikkinchi darajali nasa yoki voqealar eslab qolinmaydi. Eslab qolingan narsa va voqealar miyada sintez qilinadi va maxsus kodga aylanadi. Hozirgi kunda o'qitish muassasalarida berilgan materialni yaxshi eslab qolish ustida ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Chunki yaxshi esda olib qolingan materialni tushunish oson bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Nishanova Z. Qarshiyeva D. Atabayeva N. Qurbonova Z. Psixodiagnosticska va eksperimental psixologiya// Toshkent, 2014;
2. Ibduallayev Z. Tibbiyot psixologiyasi // Toshkent Iqtisod-Moliya, 2008;
3. Nishanova Z. Alimbayeva Sh. Sulaymonov M. Psixologik xizmat// Toshkent, 2014.